

RIVOJLANGAN DAVLATLARDA TIJORAT BANKLARINING DEPOZIT OPERATSIYALARINING O'ZIGA XOS JIHATLARI VA TENDENSIYALARI

Jo'raev Isroil Ibrohimovich,

PhD, Toshkent moliya instituti

Toshkent, O'zbekiston. E-mail: isroil_juraev@mail.ru

ORCID: 0000-0002-5607-0089

SPECIFIC ASPECTS AND TRENDS OF DEPOSIT OPERATIONS OF COMMERCIAL BANKS IN DEVELOPED COUNTRIES

Jurayev Isroil Ibrohimovich,

PhD, Tashkent institute of finance

Tashkent, Uzbekistan. E-mail: isroil_juraev@mail.ru

ORCID: 0000-0002-5607-0089

JEL Classification:

Annotatsiya. Ushbu maqolada taraqqiy etgan ayrim mamlakatlarda depozit operatsiyalarini tashkil etilishi, uning o'ziga xos xususiyatlari o'rganilgan. Shuningdek, maqolada rivojlangan davlatlar depozit operatsiyalarining mamlakat iqtisodiyoti va bank tizimini rivojlantirishdagi roli va unga xos bo'lgan tendensiyalar tahlil qilingan. Maqolada rivojlangan mamlakatlarning ilg'or tajribalaridan mamlakatimiz bank amaliyotida foydalanish yuzasidan takliflar ishlab chiqilgan.

Abstract. This article examines the organization of deposit operations in some developed countries and its specific features. The article also analyzes the role of deposit operations in developed countries in the development of the country's economy and banking system and the trends inherent in it. In the article, proposals have been developed regarding the use of best practices of developed countries in the banking practice

of our country.

Kalit so'zlar: depozit, YaIM, depozit bazasi, depozit turlari, resurs salohiyati, bank aktivlari, bank kreditlari, bank majburiyatlari.

Key words: deposit, GDP, deposit base, deposit types, resource potential, bank assets, bank loans, bank liabilities.

Kirish. Taraqqiy etgan mamlakatlar bank amaliyotida tijorat banklarining depozitlari banklarning aktiv operatsiyalarini amalga oshirishning asosiy manbasi hisoblanadi. Ayniqsa, muddatli va jamg'arma depozitlar bank uchun eng barqaror resurs hisoblanib, banklarning uzoq muddatli va investitsion kreditlarining ijobiy o'sishida muhim rol o'ynaydi. Buning sababi quyidagilarda namoyon bo'ladi.

- taraqqiy etgan mamlakatlar bank amaliyotida depozitlar bank resurslari tarkibida salmog'i jihatdan birinchi o'rinda turadi;

- bank kapitali banklar faoliyatini vakolatli organlar tomonidan tartibga solish va nazorat qilishning muhim vositasi hisoblanadi;

- taraqqiy etgan mamlakatlarda banklararo resurs bozori yaxshi rivojlangan bo'lsa-da, ushbu manba tijorat banklari uchun nisbatan qimmat manba hisoblanadi;

- tijorat banklari qadimdan jamiyatdagi bo'sh pul mablag'larini akumulatsiya qilish va ularni daromad olish maqsadida turli xildagi aktiv operatsiyalarga joylashtirish bilan shug'ullanuvchi muassasa hisoblanadi.

- amaldagi xalqaro va milliy talablarga ko'ra tijorat banklarining talab qilib olinguncha depozitlaridan to'g'ridan-to'g'ri resurs sifatida foydalanish mumkin emas.

Shuni qayd etish joizki, muddatli va jang'arma depozitlarning tijorat banklari uchun ahamiyatli jihati shundaki, ushbu turdagi depozitlar banklar uchun aktiv operatsiyalarni amalga oshirishning barqaror manbasi hisoblanib, mablag' egalari shartnoma muddati tuguguncha ushbu mablag'larni banklardan qaytarib olishlari mumkin emas. Jumladan, depozit mablag'larining egalari o'z mablag'larini shartnoma muddati tugashidan oldin qaytarib oladigan bo'lsa, bank tomonidan ularga to'lanadigan foizlar miqdori keskin kamaytiriladi. Natijada, depozit egalari shartnomada ko'rsatilgan foiz bo'yicha to'lanadigan daromad mahrum bo'lishadi. O'z navbatida, depozit egalari depozitlar bo'yicha daromad darajasining keskin kamayishini hisobga olib, ushbu depozitlarni oldindan qaytarib olishni keskin kamaytirishadi.

Rivojlangan mamlakatlarda depozit operatsiyalarining yana bir muhim xususiyati depozitlarni sug'urtalash mexanizmlarining mavjudligidir. Odatda, davlat yoki davlat tashkilotlari tomonidan qo'llab-

quvvatlanadigan ushbu tizimlar bank muvaffaqiyatsizlikka uchragan taqdirda omonatchilarni himoya qilishni taklif qiladi. Ushbu xavfsizlik tarmog'i mijozlarga bank tizimiga bo'lgan ishonchni oshiradi va barqarorlikni ta'minlash imkonini beradi.

Bundan tashqari, ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda tijorat banklari faoliyati markaziy banklar va boshqa tartibga soluvchi organlar tomonidan qat'iy tartibga solinadi va nazorat qilinadi. Ushbu qoidalar kapitalning yetariligi, likvidlik talablari, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish kabi qat'iy choralarini o'z ichiga oladi. Ushbu me'yoriy hujjatlarning maqsadi depozit operatsiyalarining mustahkamligi va yaxlitligini, shuningdek, moliya tizimining umumiy barqarorligini ta'minlashdan iborat.

Material va metod. Hozirgi kunda dunyo mamlakatlarining deyarli barchasida tijorat banklari faoliyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda, chunki banklar birinchidan, yirik soliq to'lovchilar hisoblansa, ikkinchidan, barcha mamlakatlarda bank xizmatlaridan foydalanish ko'lami ortib bormoqda. Har bir davlat banklar faoliyatini imkon qadar kuchli nazorat qilishga intiladi, chunki mamlakat aholisi va xo'jalik yurituvchi sube'ktlarning yuqori sifatli va xavfsiz bank xizmatlaridan foydalana olishi nazorat qiluvchi organlarning bosh maqsadlaridan hisoblanadi. Hozirgi vaqtda tijorat banklari mijozlarga 400 dan ortiq turli xil bank xizmatlarini taqdim etmoqdalar, ammo eng keng tarqalgan xizmatlar kredit va depozit xizmatlaridir. Shunday ekan, banklarda aktiv operatsiyalarni amalga oshirishning asosiy manbai hisoblangan depozit xizmatlari bilan bog'liq xalqaro tajribalarni o'rganish va ulardan mamlakatimiz bank amaliyotida foydalanish darajasini yanada oshirish muhim masalalardan hisoblanadi.

Jahon hamjamiyatida "depozit operatsiyalari" tushunchasi jismoniy va yuridik shaxslardan qabul qilingan pul mablag'lari va qimmatli qog'ozlarni bank tomonidan saqlash hamda vaqtincha foydalanishni anglatadi. Tijorat banklari tomonidan amalga oshiriladigan depozit operatsiyalari bank balansinig passivida aks ettiriladi. Tijorat banki balansi passivlari tarkibida asosiy ulushni depozit operatsiyalari egallaydi[1].

M. S. Maramigina, Ye. G. Shatkovskoy tahriri ostida nashr etilgan darslikda "Banklarning depozit operatsiyalari - yuridik va jismoniy shaxslarning pul mablag'larini ma'lum shartlarda omonatlarga jalb qilish bo'yicha operatsiyalardir. Depozit operatsiyalariga odatda talab qilib olinguncha depozitlar, muddatli depozitlar, omonatlar, jamg'arma kitobchalari va bank sertifikatlari kiradi"[2] deb ta'kidlashadi.

Xanina T.M.ning fikricha "Banklarning depozit operatsiyalarining umumiy tarkibida jismoniy shaxslarning depozitlari ustunlik qiladi. Demak, aholi jamg'armalari tijorat banklarining kredit salohiyatini shakllantirishning muhim manbai bo'lib, iqtisodiyotni rivojlantirishning qimmatli manbasi, investitsiyalar va iqtisodiyot tarmoqlarini kreditlash manbai hisoblanadi" [3].


Mahalliy iqtisodchi olimlardan biri Sh.Z.Abdullaeva «depozit deganda, faqatgina saqlash uchun moliya-kredit yoki bank muassasasiga berilgan pul mablag'lari yoki qimmatli qog'ozlar emas, balki bank omonatlari bilan bir qatorda bojxona to'lovlari, yig'imlar, soliqlar va hokazolarni

to'lash uchun kiritilgan badallar»[4] ni ham kiritib o'tgan.

Yuqoridagi talqinlarning aksariyatida bank depozitlari deganda, bank yoki boshqa kredit muassasalariga saqlash uchun topshirilgan pul mablag'lari kirishi ta'kidlangan. Fikrimizcha, depozitlar nafaqat saqlash uchun, balki banklarning aktiv operatsiyalari ko'lamini kengaytirish, o'z mijozlari bilan hisob-kitob operatsiyalarini amalga oshirish uchun jalb qilgan barcha pul mablag'larini kiritishimiz mumkin.

Rivojlangan malakatlarda tijorat banklarinig depozit operatsiyalarining zamonaviy holati tahlil qilindi. Tijorat banklari depozit operatsiyalari va unga xos bo'lgan xususiyatlar o'rganildi hamda ma'lumotlar bazasi yig'ildi. To'plangan ma'lumotlar asosida kuzatish va iqtisodiy tahlilni qiyoslash, tizimli yondashuv hamda mantiqiy yondashuv kabi uslublardan samarali foydalanildi.

Natijalar. Rivojlangan mamlakatlar depozit bazasining barqarorligi bank tizimiga bo'lgan ishonchning yuqori darajasi, bank institutlari va nazorat qiluvchi organlarning ishonchliligi, umuman, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik bilan ta'minlanadi. Rivojlangan mamlakatlarning depozit operatsiyalarining asosiy mohiyati banklarning likvidligini ta'minlash va mijozlarga moliyaviy xizmatlar ko'rsatishdir. Bu omonatlarga mablag'larni jalb qilish, ushbu mablag'larni boshqarish, tijorat va xususiy maqsadlar uchun kreditlar berish, o'z aktivlarini investitsiyalash, to'lov operatsiyalariga xizmat ko'rsatish, mijozlar mablag'larining saqlanishi va ishonchliligini ta'minlash va boshqalarni o'z ichiga oladi.



1-rasm. Ayrim mamlakatlarda bank depozitlarining YaIMga nisbati[5], (2022 yil yakuni bo'yicha)

Xalqaro tajribalarni ўrganar эканмиз, депозит операцияларининг ривожланганлигига гувоҳ бўламиз. Халқаро амалиётда банк депозитларининг ЯИМга нисбаитининг юқори бўлиши авваламбор, банк тизимига ишончни кўрсатувчи индикатор сифатида баҳоланса, бошқа томондан банкларнинг мамлакат иқтисодий тараққиётида тутган ролини кўрсатади. Таҳлиллар шуни кўрсатмоқдаки, Япония (260%), Франция (107%), АҚШ (101%) каби малакатларда банк депозитларининг салмоғи мамлакат ЯИМдан ҳам юқори даражага эга. Мамлакатимизда бу кўрсаткич 2022 йил якунига кўра 24,4 фоизни ташкил этаётганлиги, банк тизими олдида улкан вазифаларни юклайди.

Xalqaro bank amaliyotidan ma'lumki, taraqqiy etgan davlatlarda tijorat banklari tomonidan muddatli va jamg'arma depozitlar uchun to'lanadigan foiz stavkalari darajasi muhim ahamiyat kasb etadi. Ko'pgina tijorat banklari mazkur depozitlarning foiz stavkalarini belgilashda hukumat qimmatli qog'ozlariga to'lanayotgan foiz stavkalarining o'rtacha darajasini inobatga olishadi. Shuningdek, ayrim taraqqiy etgan

mamlakatlarda, jumladan Buyuk Britaniyada soliq imtiyozlari qo'llaniladigan depozitlar ham mavjud.

Individual jamg'arma hisoblari (ISAs) Buyuk Britaniyada mavjud bo'lgan soliqqa tortilmaydigan samarali jamg'arma va investitsiya hisoblarining bir turidir. ISA jismoniy shaxslarga ma'lum soliq imtiyozlari bilan pulni tejash yoki investitsiya qilish imkoniyatini taklif qiladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, jismoniy shaxslar har bir soliq yilida ISAgaga badal qo'shishi mumkin bo'lgan miqdorga cheklovlar mavjud. Ushbu chegaralar hukumat tomonidan belgilanadi va har yili o'zgarishi mumkin.

Financial Times ma'lumotlariga ko'ra, 2020-2021 yillarda Buyuk Britaniyada yoshi katta fuqarolar omonidan qariyb 12 million shaxsiy jamg'arma hisobvaraqlari ochilgan, ulardan 4,2 millioni 10000 funt sterlingdan ortiq investitsiya aktivlariga ega.

ISA jismoniy shaxslarga o'z daromadlarini soliqqa tortishdan himoya qilgan holda pullarini tejash yoki investitsiya qilish uchun soliq imtiyozlari va moslashuvchanlikni taklif qiladi.

Alohida moliyaviy mahsulot bo'lgan Individual jamg'arma hisobvarag'i 1999 yilda joriy qilingan va qisqa vaqt ichida pulni tejash va jamg'arishning eng mashhur vositalaridan biriga aylandi. ISAning boshqa har qanday jamg'arma hisobvarag'idan asosiy farqi shundaki, taklif qilingan foizlar daromad solig'iga tortilmaydi.

Shuni hisobga olish kerakki, Britaniyada bir soliq yilida hisobvaraqlarga qo'yilishi mumkin bo'lgan badallar miqdori bo'yicha cheklov mavjud.

Masalan, 2023/24 soliq yilida bank mijozi Cash ISA-ga 20000 funt sterlinggacha depozit qo'yishi mumkin. Agar uning bir nechta jamg'arma hisoblari bo'lsa, u bu summani mos ravishda boshqa turdagi ISAlarga bo'lishi mumkin, masalan, £15,000ni Cash ISAg, 2,000 funt sterlingni

qimmatli qog'ozlar va aksiyalar ISAg va 3,000 funt sterlingni Lifetime ISAg qo'yish. Yana bir muhim jihat shundaki, Lifetime ISA yiliga 4000 funt sterling limitiga ega [6].

Umuman olganda Yevropa davlatlarida tijorat banklarining depozit operatsiyalarini amalga oshirish tizimining o'ziga xos jihatlari mavjud. Masalan Yevro hududga kiruvchi mamlakatlarda tijorat banklarining depozit operatsiyalarini amalga oshirish Yevropa Markaziy bankning qat'iy talablari asosida amalga oshiriladi.

2021 yil uchun bank tizimi tahlillari shuni ko'rsatadiki, biznes va uy xo'jaliklarining jami depozitlari 5,7 foizga o'sib, 16,5 trillion yevroga yetdi. Yevropa Ittifoqida uy xo'jaliklari depozitlari o'tgan yilga nisbatan 4,3 foizga, tadbirkorlik sub'ektlarining depozitlari esa 8,6 foizga o'sdi [7].

1-jadval

Yevropadagi ayrim mamlakatlar bank tizimi aktivlari, kreditlari va depozitlarining o'zaro nisbati [8]

(yil boshiga)

Ko'rsatkichlar	Evrohudud mamlakatlari				
	2018 y	2019 y	2020 y	2021 y	2022 y
Aktivlar miqdori (million yevro)	30378,5	30875,8	32435,6	35219,2	36687,4
Kreditlar miqdori (million yevro)	18305,5	18792,6	19385,8	19385,8	23316,4
Depozitlar miqdori (million yevro)	17549,6	18086,9	18931,7	21354,3	22334,6
Depozitlarning kreditlarga nisbatan ulushi, foizda	95,9	96,2	97,7	110,2	95,8
Ko'rsatkichlar	Evrohududga kirmagan mamlakatlar				
	2018 y	2019 y	2020 y	2021 y	2022 y
Aktivlar miqdori (million yevro)	3514,9	3436,1	3680,1	3999,6	4138,3
Kreditlar miqdori (million yevro)	2257,3	2244,4	2373,9	2373,9	2679,2
Depozitlar miqdori (million yevro)	1491,8	1554,7	1684,2	1895,3	2017,8
Depozitlarning kreditlarga nisbatan ulushi, foizda	66,1	69,3	70,9	79,8	75,3
Ko'rsatkichlar	Buyuk Britaniya				
	2018 y	2019 y	2020 y	2021 y	2022 y

Aktivlar miqdori (million yevro)	8995,1	9035,3	9434,5	9532,7	10647,2
Kreditlar miqdori (million yevro)	4040,0	4078,7	4378,9	4461,0	5101,8
Depozitlar miqdori (million yevro)	3849,6	3886,7	4086,8	4145,7	4755,0
Depozitlarning kreditlarga nisbatan ulushi, foizda	95,3	95,3	93,3	92,9	93,2

Yevrohududga a'zo tijorat banklari depozitlarining taqqoslama tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, a'zo mamlakatlarning deyarli barchasida bank depozitlarining kreditlarga nisbati juda ham yuqori.

Masalan, Yevropaning eng rivojlangan va moliyaviy markazlaridan biri hisoblangan Germaniyada tijorat banklarining depozit operatsiyalari juda ham rivojlangan. 2021 yilda Germaniya bank tizimi depozitlari bank aktivlariga nisbati 106,9 foizni foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2022 yilda 95,1 foizga tushgan. Fransiyada bu ko'rsatkich so'nggi besh yil davomida nobarqaror tendesiyani namoyon qilgan. 2022 yilda Yevrohudud miqyosida mazkur ko'rsatkich o'rtacha 93,7 foizni tashkil qilayotganligi bank kreditlarining deyarli barchasi depozitlar hisobiga to'g'ri kelayotganligini ko'rsatadi.

Yevrohududga kirmagan mamlakatlarda tijorat banklarining

depozitlarining bank kreditlariga nisbati birmuncha past ekanligi namoyon bo'ladi. Masalan, 018 yilda tijorat banklari depozitlarining kreditlarga nisbati 66,1 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2022 yilda 75,3 foizgacha o'sganligini ijobiy deb baholash mumkin.

Jahon bank tizimida yuqori moliyaviy salohiyatga ega bo'lgan AQSh tijorat banklarining ham depozit operatsiyalarini amalga oshirish bilan faoliyati juda taraqqiy etgan desak adashmagan bo'lamiz. AQShda tijorat banklarining majburiyatlarining katta qismini depozitlar tashkil qilishi ham buning isboti desak adashmaymiz. 2023 yilda AQShda ikkinchi o'rinda, jahonda 6 o'rinda turadigan yirik banklardan biri hisoblangan Bank of America ning majburiyatlari tarkibini ko'rib chiqamiz.

2-jadval

Bank of America majburiyatlari tarkibi va dinamikasi [9]


(yil oxiriga, foizda)

Nomlanishi	2018	2019	2020	2021	2022
Talab qilib olinguncha depozitlar	412,6	403,3	650,7	784,2	640,7
Jamg'arma va muddatli depozitlar	891,6	940,7	1038,3	1165,9	1182,6
Xorijiy filiallardagi depozitlar	77,3	90,8	106,5	114,3	107,0
Depozitlarning o'sishi	-	3,86%	25,14%	14,98%	-6,50%
Jami qarzlar	436,6	440,3	463,1	507,1	508,9
Boshqa majburiyatlar	278,0	304,5	300,7	339,4	338,9
Jami majburiyatlar	2096,0	2179,5	2559,3	2910,9	2778,2

Bank depozitlarining majburiyatlarga nisbati, foizda	65,9	65,8	70,2	70,9	69,5
---	-------------	-------------	-------------	-------------	-------------

2-jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, bugungi kunda AQSh bank amaliyotida tijorat banklarining majburiyatlari tarkibida depozitlarning ulushi ancha yuqori. Masalan, **Bank of Americaning** 2018 yildagi bank majburiyatlari tarkibida depozitlarning ulushi 65,9 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2021 yilga kelib 70,9 foizgacha oshgan. AQSh bank

amaliyotida banklarning aktiv operatsiyalarining katta qismi depozitlar hisobidan qoplanishini hisobga oladigan bo'lsak, mamlakatda bank depozitlarining mustahkamligiga alohida e'tibor qaratiladi. Shunigdek, AQShda bank tizimining depozitlari ham o'sish tendensiyasini namoyon qilmoqda.



2-rasm. AQSh tijorat banklari depozitlari dinamikasi [10] (yil boshiga, mlrd. AQSh dollari)

AQSh bank tizimining depozitlari so'nggi 10 yillikda qariyb 2 barobarga oshgan. 2013 yilda depozitlarning umumiy salmog'i 9882,9 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2021 yilda 18006,0 mlrd. AQSh dollariga yetgan. 2022 yil yakunida bu ko'rsatkich biroz pasayib 17743,4 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan.

Hozirgi kunda AQSh mahalliy banklari tomonidan jalb qilingin depozitlarning asosiy qismini jamg'arma depozitlar tashkil qilmoqda va ularning ushbu salmog'i so'nggi yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Jamg'arma depozitlar tabiatiga ko'ra muddatli depozitlardan arzon resursligi va u bo'yicha tuziladigan bitimlarning egiluvchanligi bilan ajralib turadi. Shu bois

AQSh tijorat banklari aktiv operatsiyalarini amalga oshirishda ko'proq mazkur depozitlardan foydalanilishi bejiz emas. Chunki, AQShda tijorat banklari talab qilib olinguncha depozitlardan aktiv operatsiyalarni amalga oshirishda resurs manba sifatida foydalanmaydi va ushbu depozitlar uchun foiz to'lanmaydi. Bu, o'z navbatida, AQSh banklariga barqaror depozitlar uchun yuqori darajada foiz to'lash imkonini beradi.

Jahon amaliyotida tijorat banklari depozit bazasining barqarorlik darajasini mustahkamlashda banklarga jalb qilinayotgan omonatlar va depozitlarning to'liq hamda o'z vaqtida qaytarilishini

kafolatlovchi depozitlarni sug'urtalash tizimi samarali faoliyat yuritib kelmoqda.

Munozara. Yevrohududdagi tijorat banklarining depozit operatsiyalarining rivojlanishiga bir qancha omillar ta'sir ko'rsatadi. Jumladan:

Tartibga soluvchi talablar: Yevropa Markaziy banki (ECB) Yevrohududa faoliyat yurituvchi tijorat banklari uchun umumiy qoidalarni belgilaydi. Ushbu qoidalar bank tizimining barqarorligi va yaxlitligini ta'minlashga qaratilgan. Tijorat banklari majburiy zaxiralar, likvidlik koeffitsientlari va kapitalning yetarlilik standartlari kabi turli qoidalarga bo'ysunadi. Ushbu qoidalar omonatchilarni himoya qilishga va Yevrohududning umumiy moliyaviy barqarorligini saqlashga yordam beradi.

Bozor shartlari: Iqtisodiy rivojlanish darajasi, foiz stavkalari va Yevrohududdagi raqobat muhiti depozit operatsiyalarining rivojlanishiga ijobiy ta'sir qiladi. Banklar kredit va investitsiya operatsiyalarini amalga oshirish uchun depozitlarni jalb qilishlari va saqlashlari kerak. Banklar o'z mijozlariga depozitlarning shartlariga muvofiq ravishda yuqori stavkadagi depozitlarni taklif qilishadi. Past foiz stavkalari depozitlarning xajmi va barqarorligiga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Banklar innovatsion depozit mahsulotlarini yoki onlayn-banking, mobil banking ilovalarini taklif qilish orqali yuqori darajada raqobatlashadilar.

Texnologik yutuqlar: Texnologik taraqqiyot Yevrohududdagi depozit operatsiyalarining rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Internet va mobil bankingning o'sishi banklarga raqamli depozit(omonat) mahsulotlarining keng assortimentini taklif qilish imkonini beradi. Jumladan, onlayn jamg'arma hisobvaraqlari, muddatli depozitlar va mobil to'lovlarning rivojlanganligi mijozlarga juda katta tanlash imkoniyatini yaratadi. Ushbu texnologiyalar

asosidagi innovatsiyalar depozit operatsiyalarini ham banklar, ham mijozlar uchun qulayroq va foydaliroq bo'lishini ta'minlaydi.

Bundan tashqari, Yevrohududa depozitlar bilan bog'liq innovatsion xizmatlarni taklif qiluvchi FinTech kompaniyalari rivojlanmoqda. Misol uchun, ba'zi FinTech startaplari bank hisoblarini bog'laydigan va tezkor pul o'tkazmalarini amalga oshirishni osonlashtiradigan raqamli to'lov platformalarini taqdim etishmoqda.

Depozit riskini samarali boshqarish. Banklar omonatlarni jalb qilish va moliyaviy barqarorlikni saqlab qolgan holda ushbu mablag'lardan samarali foydalanishni ta'minlash bilan turli risklarni samarali boshqarishi kerak.

Umuman olganda, yevrohududa tijorat banklarining depozit operatsiyalarini rivojlantirish ko'p qirrali jarayon bo'lib, tartibga solish, iqtisodiy omillar, texnologik o'zgarishlar va raqobatbardosh strategiyalar ta'sirida bo'ladi. Banklar dinamik moliyaviy muhitda omonatlarni samarali jalb qilish, boshqarish va saqlab qolish uchun ushbu omillarni mohirona boshqarishi kerak.

Amerika Qo'shma Shtatlari har xil turdagi bank depozit hisobvaraqlarining keng doirasini taklif etadi. Depozit hisobvaraqlarining eng keng tarqalgan turlariga quyidagilar kiradi:

1. Joriy hisobvaraqlar: Bu kundalik moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish uchun mo'ljallangan hisobvaraqlar turi. Joriy hisobvaraqlar egalari chek kitoblaridan, bankomatlardan foydalanishlari, elektron pul o'tkazmalari va to'lovlarni amalga oshirishlari mumkin.

2. Jamg'arma hisobvaraqlari: yirik xaridlar uchun pul mablag'larini doimiy ravishda to'plashga mo'ljallangan omonat turi. Ushbu depozitning o'ziga xos xususiyati shundaki, hisobni juda oz miqdorda to'ldirish mumkin, bundan tashqari pul mablag'larini

qisman yechib olish mumkin. Ular odatda joriy hisobvaraqlardan- ko'ra yuqori foiz stavkasiga ega va ushbu hisobvaraqlardan pul mablag'larini olishda ayrim cheklovlar mavjud bo'ladi.

3. Depozit sertifikatlari (CD): bu omonat hisobvarag'i bo'lib, unda belgilangan muddatda pul mablag'lari saqlanadi va buning evaziga emitent bank foizlar to'laydi. CD hisoblari odatda yuqori foiz stavkasiga ega, ammo pul mablag'larini faqat depozit muddati tugagandan keyin olish imkoniyatini beradi.

4. Yuqori daromadli omonat hisobvaraqlari: Bu oddiy omonat hisobvaraqlariga qaraganda yuqori foiz stavkasini taklif qiluvchi omonat hisobvaraqlari. Ular minimal qoldiq yoki tranzaksiyalar soni bo'yicha cheklovlar o'rnatish kabi muayyan shartlarga bo'ysunishni talab qiladi.

5. Sog'liqni saqlash jamg'armasi hisobvarag'i (HSAs) - bu Amerika Qo'shma Shtatlaridagi yuqori chegirmali sog'liqni saqlash rejasida ro'yxatdan o'tgan soliq to'lovchilar uchun soliq imtiyozli tibbiy jamg'arma hisobvarag'i. Hisobga kiritilgan mablag'lar depozit qo'yish vaqtida federal daromad solig'iga tortilmaydi.

Bundan tashqari, AQSh bank amaliyotida depozit hisobvaraqlarining yana ko'p turlari mavjud, jumladan shaxsiy pensiya hisobvaraqlari (IRA), biznes depozit hisoblari va boshqa depozit hisobvaraqlari ham mavjud. Har bir hisobvaraqlarining turining o'ziga xos shartlari, foiz stavkalari va talablari mavjud bo'lib, bank mijozlari o'zlari uchun ma'qul variantlarni solishtirish va tanlash imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Xulosa. Depozit operatsiyalari tijorat banklarining jismoniy va yuridik shaxslardan bo'sh pul mablag'larini jalb qilishning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi.

Masalan, Qo'shma Shtatlardagi depozitlarning bank kreditlariga nisbati

odatda 80-90% atrofida. Bu shuni anglatadiki, bank kreditlarining har bir dollari uchun banklarda taxminan 0,80 dan 0,90 dollargacha depozitlar mavjud.

Qo'shma Shtatlardagi depozitlarning bank kreditlariga nisbatan yuqori nisbati bir necha omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Birinchidan, AQSH yaxshi rivojlangan va barqaror moliyaviy tizimga ega bo'lib, bu banklarga pul mablag'larini joylashtirishga ishonchni kuchaytiradi. Bundan tashqari, AQSh Federal Depozitlarni Sug'urtalash Korporatsiyasi (FDIC) har bir omonatchiga 250 000 dollargacha bo'lgan depozitlarni sug'urtalashni ta'minlaydi, bu esa bank tizimiga ishonchni yanada oshiradi.

Evropa mamlakatlaridagi bank depozit operatsiyalarining rivojlanishiga bir qator omillar yordam beradi. Muhim omillardan biri bu jismoniy va yuridik shaxslarning bank tizimiga bo'lgan yuqori ishonch darajasidir. Evropada yaxshi tashkil etilgan va tartibga solinadigan bank tizimi mavjud bo'lib, ushbu omillar bank depozitlari darajasini belgilashda muhim rol o'ynaydi. Germaniya va Gollandiya kabi ba'zi Evropa mamlakatlarida jamg'arma madaniyati kuchli, bu esa bank depozitlarining yuqori darajasiga olib keladi. Bundan tashqari, barqaror va farovon iqtisodiyotga ega mamlakatlarda odamlar o'z boyliklarini saqlash uchun xavfsiz joylarga intilishlari sababli bank depozitlarining yuqori darajasini shakllantirish imkonini beradi.

Shuni ham ta'kidlash joizki, Yevropa Markaziy banki (ECB) Yevropa bank tizimida barqarorlik va ishonchni ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Yevropa Markaziy banki samarali pul-kredit siyosati choralari amalga oshiradi va tijorat banklarining likvidligini qo'llab-quvvatlaydi, bank tizimidagi depozitlar darajasiga ijobiy ta'sir ta'sir ko'rsatadi.

Umuman olganda, Yevropa mamlakatlaridagi bank depozitlari katta



ahamiyatga ega va butun mintaqada moliyaviy barqarorlikni, kreditlash faoliyatini va iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Mamlakatimiz bank amaliyotida rivojlangan mamlakatlar amaliyotida foydalaniladigan tajribalardan kelib chiqib, quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim deb o'ylaymiz.

- mamlakatimiz tijorat banklari depozitlarini ularning kreditlariga nisbatan barqaror o'sish tendensiyasini ta'minlash lozim. Chunki depozitlar banklar uchun moliyaviy barqaror resurs manbai hisoblanib, ularning salmog'ini oshishi bank tizimiga bo'lgan ishonch bilan belgilanadi. Ayniqsa, kapitalida davlat ulushi mavjud tijorat banklarida bu ko'rsatkich salbiy tendensiyaga ega. Mazkur banklarning kredit qo'yilmalarining depozitlarga nisbati 2023 yil 1 noyabr holatiga 290 foizni tashkil etmoqda.

- mamlakat bank tizimi depozitlarining mamlakat YaIMga nisbatan barqaror o'sishiga erishish lozim. Buning natijasida mamlakat iqtisodiyotining pul mablag'lariga bo'lgan talabini bank kreditlari orqali qondirish imkoniyati yaratiladi.

- Mamlakatimiz tijorat banklari majburiyatlari tarkibida depozitlarning salmog'ini kamida 60 foizdan oshirishga erishish lozim. Yevrohududga kiruvchi mamlakatlar tijorat banklarida bu ko'rsatkich 80 foizdan yuqori, AQSh tijorat banklarida o'rtacha 70 foizni tashkil etmoqda. 2023 yil 1 noyabr holatiga mamlakatimiz bank tizimi depozitlarining majburiyatlar tarkibidagi ulushi 41,4 foizni tashkil etadi.

- mamlakatimiz tijorat banklari tomonidan mijozlarga turli imtiyozlar taqdim etuvchi jozibador depozit turlarini joriy qilish va bu haqdagi ma'lumotlarni keng ommaga yetkazilishini ta'minlash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Аксененко В. И. Депозитные операции иностранных банков / В. И. Аксененко // Деньги и кредит. – 2019. – № 6 – С. 25 – 31.
2. Банковское дело и банковские операции : учебник / М. С. Марамыгин, Е. Г. Шатковская, М. П. Логинов, Н. Н. Мокеева, Е. Н. Прокофьева, А. Е. Заборовская, А. С. Долгов ; под ред. М. С. Марамыгина, Е. Г. Шатковской ; Министерство науки и высшего образования Российской Федерации, Уральский государственный экономический университет. – Екатеринбург : Изд-во Урал. ун-та, 2021. – 567 с. : ил. – Библиогр.: с. 504–512. – 100 экз. – ISBN 978-5-7996-3104-8.
3. Ханина, Т.М. Особенности формирования депозитной политики отечественных коммерческих банков в современных условиях / Т.М. Ханина // Решение проблем развития предприятий: роль научных исследований. – 2016. – № 8. – С. 15.
4. Abdullaeva Sh.Z. Bank ishi. Darslik. -T.: TMI, Iqtisod-Moliya, 2017 yil, 732 b.
5. worldbank.com va cbu.uz.-saytlari ma'lumotlari asosida tayrlandi
6. <https://www.kommersant.uk/articles/na-horoshem-schetu-chno-takoe-individualnyy-sberegatelnyy-schet-isa-i-kak-ego-otkryt>
7. <https://www.ebf.eu/factsandfigures/>
8. <https://www.ebf.eu>- Yevropa banklari federatsiyasi rasmiy sayti ma'lumotlari
9. <https://www.wsj.com/market-data/quotes/BAC/financials/annual/balance-sheet>.
10. <https://fred.stlouisfed.org/series/DPSACBM027NBOG>.